

## Turkiyaga dam olishga ketayotgan sayyoohlar uchun yo'riqnomalar O'zbekistondan uchib ketish

**Xalqaro reyslar uchun ro'yxatdan o'tish standart talablarga ko'ra boshlanadi. Aeroportda niqob va qo'lqop taqqan holda, antiseptik vosita bilan kirish shart.**

Aeroport hududida va ro'yxatdan o'tish jarayonida **ijtimioiy masofa saqlansin**. Bagaj tashish talablari sotib olingan tariff standartlari bo'yicha amalga oshiriladi.

### Parvoz vaqtida:

- Yo'lovchilar niqob va qo'lqopda bo'lishlari, vaqtiga-vaqt bilan qo'llarini tozalab turishlarilozim.
- Reyslarda issiq taomlar beriladi. Ichimliklar ro'yxati o'zgarmagan.
- Yo'lovchilarga avvaldan to'ldirilishi lozim bo'lgan Passenger Information Form taqdimetiladi.

### Turkiyaga uchish:

**Aeroportga qo'nganda sayyoohlar sanitariya normalariga amal qilishi zarur (niqob, qo'lqop, ijtimoiy masofa).**

So'ng xalqaro reysda kelgan yo'lovchilar termometr nazoratidan o'tish uchun yo'naltiriladilar. Harorati ko'tarilgani aniqlangan sayyoohlar aeroport hududidagi izolyatsiya zonasiga joylashtiriladi va ulardan PZR-test olinadi.

Test musbat natija ko'rsatsa, shifokorlar tomonidan protokolga muvofiq davolash taktikasi va izolyatsiyaga joylashtirish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Agar sayyooh COVID-19 kasalligi alomatlari mavjud bo'lgan holda parvoz qilgan bo'lsa, sug'urta kompaniyasi xarajatlarni qoplab berishdan bosh tortishi mumkin.

### Agar sayyoohda COVID-19 aniqlansa nima bo'ladi?

Covid-19 tashxisi bo'yicha xarajatlarni qoplab berish "Sayyoohning majburiy sug'urtasi" (SMS) paketiga kiritilgan. Sug'urta tur-paket xarid qilingan paytda majburiy tarzda rasmiylashtiriladi va paket ichida hisoblanadi.

Sayohat davomida sayyoohda Covid-19 tashxisi qo'yilsa, SMS quyidagilarni qoplab beradi:

Sug'urtalangan shaxs				
"Sayyoohning majburiy sug'urtasi to'g'risida"gi qonunga muvofiq:  Sug'urta tovoni sug'urtalangan shaxsga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish orqali qaytariladi.	Musbat	Covid-19 ga PZR-test	Musbat	
	Simptomli		Simptomsiz	
	-Yuqori harorat -Nafas qisilishi -Nafas olish qiyinlashishi		-Shifokor qabuli -statsionar va ambulatory davolanish -Covid-19 ga test	Sug'urta qaytish chiptasi xarajatlarini qoplaydi
	-Shifokor qabuli -statsionar va ambulatory davolanish -Covid-19 ga test		Ixtiyoriy sug'urta 3000 € gacha tovon puli	
	SMS		SMS doirasida qoplash Ixtiyoriy sug'urta doirasida qoplash	

**Agar sayyohda COVID-19 aniqlansa nima bo'ladi?**

1. **Simptomli** – COVID-19 ga testning musbat natija berishi, shikoyatlar va qabul qiluvchi davlatning davolash protokoliga muvofiq virusli infeksiyaning klinik ko'rinishi – sayyoohning majburiy sug'urtasi doirasida o'tkir holatni qoplash. Dastlabki tashxis (PZR-test), shifokor qabuli, hayoti va sog'ligiga xavf tug'ilgan holatda kasalxonada yotish, davolanish va bekor qilingan aviabilet xarajatlari qoplab berilishi talab etiladi.
2. **Simptomsiz** - COVID-19 ga testning musbat natija berishi, shikoyat va kasallik klinik belgilarining yo'qligi. Kasallikning simptomsiz kechishida sayyoh o'z-o'zini izolyatsiya qilish, barcha sug'urta xarajatlari va yangi chipta uchun o'z hisobidan to'laydi. Shu sabali sayyoh tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan to'lovlarni tejash uchun tur-paket xarid qilayotgan paytda bir kishi uchun 50€ miqdorida (cheklov – 60 yoshdan yuqori bo'lganlar) Ixtiyoriy sug'urtani ham sotib oishni tavsiya etamiz, bu esa 3000 yevrogacha bo'lgan miqdordagi sug'urta xarajatlari va kasallik simptomsiz kechgan holatda ortga qaytish biletini kompensatsiyasini qoplayadi.

**Sayyoh mehmonxonada izolyatsiyaga olinadimi yoki klinikaga joylashtiriladimi?** – Sayyoohlilik xizmati ko'rsatilayotgan mamlakat hududida davolanish ushbu davlatdagi Covid-19 ni davolash standartlariga muvofiq olib boriladi.

**Bemorning chet elda izolyatsiyalanishi qanday tashkil etiladi?** – Qo'nilgan mamlakat reglamentlariga mos ravishda, test natijalari va sug'urtalangan shaxsning tashxis vaqtidagi holatini hisobga olgan holda sayyoh:

- Ixtisoslashgan tibbiy muassasalarda;
- Mehmonxonalarda;
- COVID-19 ga test natijasi musbat chiqqan shaxslar uchun maxsus joylardan biriga joylashtiriladi.

**Bemor vataniga qachon va qanday jo'natiladi?** – Davolanish yakuniga yetgach (FTF beriladi) bemor o'z vataniga jo'natiladi, bu vaziyatda sug'urta hisobidan yangi bilet xarid qilinadi (faqat kasallikning simptomli ko'rinishida), agar sayyoh kasallikning tez tibbiy yordam ko'rsatish talab etiladigan og'ir kechishi sababli sug'urtalangan davlat hududida qolishga majbur bo'lsa, chiptani qoplash summasi Sug'urta dasturiga muvofiq ushbu toifadagi sug'urta qoplamasini limiti bilan belgilanadi.

**Agar sayyohda COVID-19 aniqlansa nima bo'ladi?**

**Covid-19 aniqlangan taqdirda sug'urta miqdori qanchani tashkil etadi?** – Miqdor aniq belgilanmagan, Assistans serviz xizmat kompaniyasiga murojaat qilinganda, **ko'rsatilgan tez tibbiy yordam uchun xarajatlarni sug'urta kompaniyasi bilvosita Assistans orqali o'z zimmasiga oladi.**

**Og'ir holatda kasalxonaga yotqizilganda sug'urta miqdori qanchani tashkil etadi?** – Og'irholatdagi bemorning kasalxonaga yotqizilishi xarajatlarining sug'urta orqali qoplanishiga klinika hisobidan ko'rsatiladigan tez tibbiy yordam xarajatlari kiradi (Shartnomada keltirilgan sug'urtasummasi doirasida).

**O'lim holati yuz berganda sug'urta miqdori qanchani tashkil etadi?** – O'lim holati yuz berganda tez tibbiy yordam xarajatlari, repatriatsiya (kul solingen idish yoki tana (qoldiqlari)ni qaytarish xarajatlari, shuningdek tanani o'rash, balzamlash va morgga olib borish, tobut sotib olish, O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelish uchun hujjatlarni rasmiy lashitirsh xarajatlari) MSM dasturida ko'rsatilgan limitlarga mos ravishda qoplab beriladi.

**Sug'urta subyektlariga nisbatan yosh chegarasi bormi?** – sayyoohlolar sug'urtasi uchun yosh chegarasi mavjud emas. Ixtiyoriy sug'urta turida esa mavjud – 60 yoshdan katta shaxslar uchun sug'urta amal qilmaydi.

**Agar PZR-test natijasi manfiy chiqsa, test xarajatlariiga kompensatsiya to'lanmaydi.**

**Sayyoh to'lojni qachon qabul qilib olishi mumkin va pulni o'tkazib berish jarayoni qanday amalga oshiriladi?** – Sug'urta to'lovi Assistans kompaniyasi orqali amalga oshiriladi (tashkillashtirish va kafolat vazifasi Sug'urta kompaniyasi zimmasida qoladi).

Assistans ishtiroki/rozilgisiz **sug'urtalangan shaxs klinikaga** (tibbiyot muassasasiga) **mustaqil tarzda murojaat qilganda**, sug'urta kompaniyasi xarajatlarni qoplab berishdan bosh tortishi mumkin.

### **O'zbekistonga qaytish**

2020-yil 26-oktyabrdan boshlab aviareyslar orqali xorijdan O'zbekistonga kelayotgan barcha yo'lovchilar, jumladan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari Qozog'iston Respublikasi chegarasini kesib o'tayotgan paytda Covid-19 ga 72 soatdan ko'p bo'lмагan muddatda PZR-testdan o'tganligini tasdiqlovchi ma'lumotnomaga ega bo'lishlari zarur.

PZR-testi natijasi manfiy bo'lмагan yo'lovchilar havo kemasi bortiga chiqishlariga ruxsat berilmaydi.

**MUHIM! 5 YOSHGACHA BO'LGAN BOLALAR PZR-TEST TOPSHIRISHDAN OZOD ETILGAN.**

### **Vaqt**

Vaqtga nisbatan O'zbekiston va Turkiya orasida 2 soat farq bor.

### **Mamlakat haqida**

**Davlat:** Turkiya Respublikasi

**Poytaxti:** Anqara shahri

**Aholisi:** Mamlakat asosiy aholisi – turklar. Turkiyada aholining taqsimlanishi juda notekis. Marmara va Qora dengizlarning qirg'oqlarida, shuningdek, Egey dengiziga tutash hududlar aholi eng zinch joylashgan hududlar hisoblanadi.

Aholi eng zinch joylashgan shahar – Istanbul, eng siyrak joylashgan tumani – Hakyari.

**Til:** Davlat tili – turkcha.

**Milliy pul birligi:** turk lirasi.

**Geografik joylashuvi:** Turkiya sharqiy yarim sharda joylashgan. 97% hududi Osiyoda, 3% hududi Yevropada joylashgan. Turkiyaning geografik jihatdan o'ziga xosligi – qadim zamonlardan beri Yevropani Osiyo, Qora dengiz mamlakatlari va O'rtayer dengizi aholisi bilan bog'lovchi muhim yo'llar kesishmasida joylashganligi.

**Iqlimi:** Turkiyaning katta hududini tog'lar egallaydi, shuning uchun iqlimi ham balandlik mintaqalariga xos.